



# **SOHIBQIRON YULDUZI**

Ijtimoiy-tarixiy, tarixiy va ommabop jurnal

---

## **СОХИБКИРОН ЮЛДУЗИ**

Общественно-исторический, историко-популярный  
журнал

---

## **OWNER STAR**

Socio-historical, historical and popular magazine

Qarshi-2024



**Bosh muharrir:**

Ochil Bo‘riyev

**Nashr uchun mas’ullar:**

Ravshan To‘xtamishev

Ilhom Tog‘ayev

## **TAHRIR HAY’ATI**

### **A’ZOLARI:**

akademik Akmal Saidov  
akademik Anatoliy Sagdullayev  
akademik Dilorom Yusupova  
Sirojiddin Sayyid  
prof. Abdurahim Erkayev  
prof. Qahramon Rajabov  
prof. Yulduz Ergasheva  
prof. Bahodir Eshov  
filol.f.d. Nafas Shodmonov  
To‘lqin Hayit  
t.f.d. G.Mo‘minova  
prof. Shokir G‘afforov  
filol.f.d. Xo‘jamurod Jabborov  
filol.f.d. Damin To‘rayev  
t.f.d. Akram Hasanov  
prof. Kamoliddin G‘aniyev  
t.f.n.dots. Matluba To‘rayeva  
t.f.d. Faxriddin Rahmonov  
t.f.f.d. Saodat Murtazova  
t.f.f.d. Ra’no To‘xtayeva  
t.f.f.d. Sarvinoz Omonova  
t.f.f.d. Oksana Rakmonkulova

### **Manzilimiz:**

Qarshi shahri, Mustaqillik shoh ko‘chasi, 2-uy. Telefon: 91.466-80-32

Elektron manzilimiz: sohibqiron-jurnali@mail.ru



# SOHIBQIRON YULDUZI

## СОХИБКИРОН ЮЛДУЗИ

### OWNER STAR

Ijtimoiy-tarixiy, tarixiy va ommabop jurnal 2010 yildan boshlab chiqarilmoqda

**Muassis:**  
**SOHIBQIRON**  
**SHULASI M.CH.J.**  
Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 2 -uy.  
Telefon: 91.466-80-32  
Sayt:  
[www.sohibqiron-yulduzi.uz](http://www.sohibqiron-yulduzi.uz)  
E-mail:  
[sohibqironjurnali@mail.ru](mailto:sohibqironjurnali@mail.ru)  
Qashqadaryo viloyat matbuot va axborot boshqarmasida 2012 yil  
12 marta  
14-076 raqami bilan ro'yxatga olingan.  
Jurnal yilda 4 marotaba chop etiladi.  
Jurnaldan ko'chirma olinganda manba qayd etilishi shart.  
Nashr indeksi - 4074 ISSN 2181-2845  
7-sonli nashr.  
Terishga topshirilgan sana 16.10.2024 y.  
Nashrga berilgan sana 05.11.2024 y.  
Chop etilgan sana 28.11.2024 y.  
Bichimi 60x84 1/8. Times garniturasi. Shartli bosma tabog'i 6,26. Nashr bosma tabog'i 6,25. Adadi 100.  
Buyurtma №410  
Jurnal «Rhoto Express» ishlab chiqarish korxonasi bosmaxonasida chop etildi.  
**Bosmaxona manzili:**Qarshi shahri Mustaqillik shoh ko'chasi,22-uy.

### 2024/ 1- MAXSUS SON

### MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

#### TADQIQOT / ИССЛЕДОВАТЬ / RESEARCH

Normatov O. O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish amalga oshirilishi xususida.....	4
Qandov B. Turkistonagi siyosiy jarayonlarda atoqli davlat arbobi Turor Risqulovning tutgan o'rni va ijtimoiy faoliyati .....	10
A.Горин. Монеты “герая” из крепости узундара.....	18
Z.Haydarova. Motiv va motivatsiya - o'quvchining qiziqishlari, bilish darajasi hamda ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanadigan omil sifatida.....	29
Sh.Parmonov. Rossiya imperiyasi siyosatida general Jo'rabeckning o'rni.....	36
A.Toshtemirov. Muhammad Ali o'tkazgan islohotlarning Misrning xalqaro maydondagi mavqeyini mustahkamlashdagi o'rni .....	42
U.Rahmonov. Abdurahmon Sayyoh Toshkandiyning ijtimoiy va madaniy qarashlarida ma'rifatparvarlik g'oyalari.....	50
S.Saparov. Kidariylarning Markaziy Osiyo va Hindistonga ko'chish sabablari va yo'nalishlari .....	54
A.Xolmo'minov. Muqaddas qadamjo va ziyoratgohlarda tabiat kulti bilan bog'liq qarashlar(Toshkent viloyati misolida).....	61
Misabayeva M. Turkistonagi ozodlik harakatining tarixshunosligi .....	66
Usmonaliyeva M. "Taraqqiy" – birinchi milliy gazeta .....	70
L.Ochigliyev. Qashqadaryo vohasida ekologik turizmning holati .....	75
Sh.Qilicvhev. Xorazmshohlar davlatida markaziy boshqaruvi idorasi .....	82
Sh.Luqmonov. RSFSR hududida joriy qilingan yangi iqtisodiy siyosatning Turkiston pul munosabatlari tizimida tutgan o'rni .....	88



Rtveladze, 1997 – Rtveladze E. (ed.) Catalogue of antique and medieval coins of Central Asia. Vol. I. 100 coins from the collection of the National bank of Uzbekistan. Tashkent, 1997.

Senior, 2001 – Senior R.C. Indo–Scythian Coins and History. Vol. I–III. London, 2001.

Smith, 2001 – Smith D.S. Early Central Asian imitation III: Coinage of Heliokles I and the Kushan connection // The Celator 15 (11 November), 2001. P. 10–15.

Zeymal, 1997 – Zeymal E.V. Coins from the excavations of Takht-i Sangin (1976–1991) // K. Tanabe, J. Cribb, H. Wang (eds.), Studies in Silk Road Coins Art and Culture. Papers in honour of Professor Ikuo Hirayama on his 65th birthday. Kamakura, 1997. P. 89–110.

Zeimal, 1999 – Zeimal E.V. Tillya-tepe within the context of the Kushan chronology // M. Alram, D.E. Klimburg-Salter (eds.), Coins, Art and Chronology Essays on the Pre-Islamic History of the Indo-Iranian Borderlands. Vienne, 1999. P. 239–244.

## MOTIV VA MOTIVATSIYA - O'QUVCHINING QIZIQISHLARI, BILISH DARAJASI HAMDA IJTIMOIY MUHIT TA'SIRIDA SHAKLLANADIGAN OMIL SIFATIDA

HAYDAROVA ZILOLA NORMURODOVNA,  
CHDPU katta o'qituvchisi  
E-mail: [haydarova.zilol@gmail.com](mailto:haydarova.zilol@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lif tizimini, ayniqsa, maktab ta'lmini zamonaviy yutuqlarga moslashtirish, motiv va motivatsiya orqali o'quvchining qiziqishlari, bilish darajasini shakllantirish, o'quvchilarning raqamli savodxonlik ko'nikmalarini oshirish, hamda raqamlashtirish jarayonida hozirgi zamon o'quvchilarida raqamli savodxonlikni shakllantirish mexanizmlari haqida fikr yuritilgan

**Kalit so'zlar:** motiv, motivatsiya, raqamli o'qitish, raqamli ta'lif, raqamli savodxonlik, ijodiy fikrlash, individual ta'lif, mobil ta'lif, raqamli manbalar, elektron kutubxona, fiziologik, ehtiyojlar, xavfsizlikka bo'lgan ehtiyoj

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются механизмы адаптации системы образования, особенно школьного, к современным достижениям, формирования интересов учащихся посредством мотивации и мотивации, уровня знаний, повышения навыков цифровой грамотности учащихся, а также формирования цифровой грамотности у современных учащихся в процессе оцифровки

**Ключевые слова:** мотив, мотивация, цифровое обучение, цифровое образование, цифровая грамотность, творческое мышление, индивидуальное обучение, мобильное обучение, цифровые ресурсы, электронная библиотека, физиологические, потребности, потребности в безопасности

**Annotatsiya:** This article reflects on the mechanisms of adaptation of the



educational system, especially school education to modern achievements, the formation of the student's interests, knowledge level through motivation and motivation, improving the digital literacy skills of students, and the formation of digital literacy in modern students in the process of digitization

**Keywords:** motivation, motivation, digital teaching, digital education, digital literacy, creative thinking, individual education, mobile education, digital resources, Electronic Library, physiological, needs, security need

Erkin fikrlovchi, o‘z shaxsiy fikriga ega, olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo‘llay oladigan kadrlarni tayyorlash milliy o‘qitish tizimi oldida turgan asosiy maqsadlardan biridir. Bugungi kun o‘quvchilarini globallashuv davridagi ijtimoiy o‘zgarishlar, axborot oqimining kengayishi, murakkab vaziyat va xususiyatlarga to‘la munosabatlarga tanqidiy fikrlash ko‘nikmalariga ega qilib tarbiyalash ijtimoiy zaruratga aylanmoqda.

Zamonaviy ko‘nikmalarga ega o‘quvchini tarbiyalashda asosiy ma’suliyat o‘qituvchi, maktab jamoasi, ota-onalar hamda bola bilan doimiy muloqot qiladigan shaxslar zimmasiga tushadi. Ammo bugungi kun o‘quvchisi ko‘proq vaqtini internet o‘yinlari, ijtimoiy tarmoqlar hamda mobil telefonni bilan o‘tkazmoqda. Maktab o‘quvchisi yuqori sinfga o‘tgani sari o‘zini qiziqtirgan barcha savollarga javobni internet vositalari orqali olmoqda.

Maktab o‘quvchilarining yildan yilga darslardan, ta’lim olish va o‘rganishdan sovishiga birlamchi sabab ijtimoy hayotdagi o‘zgarishlar, mobil telefonlar va internet platformalari bo‘lsa, ikkinchi sabab darsliklarning zamon talablariga moslashmayotganida, o‘qitish tizimida o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan qulay ta’lim olish muhitini yaratilmayotganidadir. Bugungi kun o‘quvchisini internet saytlari, telefon o‘yinlari va ijtimoiy tarmoqlardan ko‘ra bilim olish va o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqini oshirish pedagogika sohasi oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

Raqamlı ta’lim samarali taraqqiyot, ta’limni boshqarish, inklyuzivlik, universallik va mobil o‘rganish imkonini beradi va shu bilan hayotning barcha jabhalaridan o‘quvchilarga foyda keltiradi. Pandemiya davrida raqamlı texnologiyalar ijtimoiy, iqtisodiy va sog‘liqni saqlash sohasidagi muammolarni hal qilishda hal qiluvchi rol o‘ynadi. Ta’lim muassasalarini, shu jumladan, maktablarni onlayn o‘qitish, o‘qitish, tashkil etish va boshqarishga o‘tish karantin choralarining amalga oshirilishi tufayli zarur bo‘ldi. Raqamlı ta’lim infratuzilmasidan foydalanish imkoniyati cheklangan mamlakatlarda maktablarning yopilishi sababli o‘quvchilarning muhim qismi bir yildan ortiq vaqt davomida ta’limdan mahrum bo‘lgan. Ta’lim sohasidagi ushbu o‘zgarishlar zamonaviy texnologiyalar va inson resurslaridan foydalangan holda inklyuziv, ochiq va moslashuvchan ta’lim tizimlarini birlashtiradigan zamonaviy mакtab modelini yaratish zarurligini ta’kidlaydi.

YUNESKO tashkiloti butun dunyo bo‘ylab ta’limni yaxshilashga qaratilgan sa’y-harakatlarida ta’limda raqamlı innovatsiyalarni yaratish va ta’lim muammolarini hal qilish muhimligini tan oladi. Sifatli ta’lim olish imkoniyatini ta’minlash insonning asosiy huquqidir va shuning uchun raqamlı ta’lim sharoitlarini rivojlantirish ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun juda muhimdir. YUNESKOning 2022-2025 yillarga mo‘ljallangan ta’lim innovatsiyalari strategiyasiga muvofiq ochiq ta’lim resurslarini



yaratishga ko‘maklashish maqsadida “Ochiq ta’lim resurslari” loyihasi ishlab chiqildi. Mazkur loyiha ko‘ra, yuqori sifatli o‘quv materiallari, dasturlari, mobil ilovalari va raqamli kontentdan foydalanish inklyuziv o‘rganish, rivojlantirish va raqamli ta’lim innovatsiyalarini yaxshilash imkonini beradi. Raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali loyiha uzluksiz ta’lim imkoniyatlarini ta’minlash va ta’lim tizimini tashkil etish monitoringini o‘tkazishga qaratilgan bo‘lib, asosiy e’tibor o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun raqamli savodxonlik va raqamli kompetensiyalarni oshirishga qaratilgan.

Mamlakatimizda ta’lim tizimini, ayniqsa, maktab ta’limini zamonaviy yutuqlarga moslashtirish, o‘quvchilarning raqamli savodxonlik ko‘nikmalarini oshirish, globallashuv davri va bozor iqtisodiyotida raqobatlasha oladigan malakali mutaxassislarni tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Xususan, respublikamiz Prezidenti tomonidan “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi”. Mazkur masalalardan kelib chiqib hamda globallashuv davri talablariga moslashish sharoitida raqamli ta’limni tashkil etish hamda metodik asoslarini o‘rganish mavzusini har tomonlama chuqur ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan o‘rganishni taqozo qiladi.

Ta’lim jarayonida o‘quvchini darsga qiziqtirish, o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish hamda o‘quvchi uchun qulay bo‘lgan ta’lim muhitini yaratish xorij va mahalliy olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, quyida biz ushbu tadqiqotlar tahliliga to‘htalib o‘tmoqchimiz.

O‘quvchilarni o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishning amaliy ahamiyati, hamda dars jarayoniga qiziqishini oshirishning samarali usullari va yondashuvlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqot ishlari A.K.Markova, O.V.Kanarskaya; V.L.Prokofieva, O.Y.Boltneva, L.A.Dolgova, V.N.Kruglikov tomonidan olib borilgan. B.C.Merlin, A.B.Orlov, A.V.Petrovskiy, P.V.Simonov, A.A.Fayzullaev, V.E.Chudnovskiyning tadqiqotlarida o‘quv jarayonida maktab o‘quvchisining eng katta ehtiyoji-motivatsion sohasini shakllantirish, shuningdek, yangi motivatsiya manbalarini aniqlash va ularga ob’ektiv talablarni shakllantirishga qaratilgan bo‘lsa; S.L.Bojovich, Yu.N.Kulyutkin, A.K.Markova, M.V.Matyunina, N.G.Morozova, R.S.Nemov, K.Obuxovskiy, D.I.Fel’dshteyn, L.M.Fridman, B.C.Tsetlin, U.S.Yakimanskaya, P.M.Yakobson tadqiqotlarida esa maktab o‘quvchilarining motivlari va ehtiyojlarini shakllantirish maktab ichidagi, o‘quv jarayonining umumiy tarkibiy kontekstida ijtimoiy hodisa sifatida tadqiq etilgan. Quyida biz motiv, motivatsiya, qiziqish va qiziqtira olish tushunchalari tahliliga to‘xtalib o‘tmoqchimiz.

Motiv – bu kishini faoliyatga undovchi kuch, sabab yoki ehtiyojlar yig’indisidan iboratdir. Motiv tushunchasiga olimlar tomonidan quyidagicha ta’rif beriladi: A.Maslouning fikricha, motiv bu ehtiyojlar yig’indisidir. S.L.Rubinshteynnning ta’kidlashicha, motiv bu ehtiyojning his qilinishi va qondirilishi. S.L.Rubinshteyn. «Motivatsiya – bu psixika orqali amalga oshuvchi determinatsiyadir». A.N.Leont’ev – motivni inson faoliyatiga yo‘nalgan aniq ehtiyojlar va uni qo‘zg’atadigan voqelik deb hisoblaydi.

Motiv – ma’lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog’liq faoliyatga undovchi sabab.



Motivatsiya keng ma'noda inson hayotining (uning xulq-atvori, faoliyatining) murakkab ko'p qirrali boshqaruvchisi deb qaraladi. Motivatsiya – insonni faoliyatga undashning murakkab, ko'p darajali tizimi bo'lib, u o'zida ehtiyojlarni, motivlarni, qiziqishlarni, ideallarni, intilishlarni, ustanovkalarni, emotsiyalarni, normalarni, qadriyatlarni mujassamlashtiradi.

Motivatsiya – murakkab tuzilma, faoliyatni harakatlantiruvchi kuchlar majmuasi bo'lib, u o'zini mayllar, maqsadlar, ideallar ko'rinishida namoyon qiladi va inson faoliyatini bevosita aniqlab, boshqarib turadi. Motivatsiya – odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmuidir. V.S.Merlin motivlar tizimlarining ayrim jihatlarini ancha batafsil yoritib bergen. U motivlar tizimlarining shakllanish jarayonini quyidagicha tasavvur etadi: «turli motivlar bora-bora o'zaro bog'liq va bir-biriga tobe bo'lib boradi hamda oxir oqibatda motivlarning yaxlit tizimi vujudga keladi». V.S.Merlin fikricha, motivlar tizimining shakllanishi jarayonida nafaqat motivlar barqarorligi, balki motivlarni anglash kabi shartlar bajarilishini talab etiladi. A.Maslou ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi bilan mashhurdir. O'z nazariyasida A.Maslou ehtiyojlarining quyidagi ierarxik qatorini ajratadi: fiziologik ehtiyojlar, xavfsizlikka bo'lgan ehtiyoj, muhabbat va boshqalar bilan bog'liq bo'lish ehtiyoji, hurmatga bo'lgan ehtiyoj, insonning o'z yashirin imkoniyatlarini to'laroq namoyon etish va ro'yobga chiqarish ehtiyoji va boshqalarni kiritadi.

Motiv va motivatsiya o'quvchining qiziqishlari va bilish darajasi hamda ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanadi. Dars jarayoniga o'quvchini qiziqtirish birinchi navbatda o'rganilayotgan mavzuni tushunarli, bolaning olami va bilish darajasiga mos tushuntirish vosita va usullarini tanlangani bilan bog'liq.

Bir xil vosita va usullardan foydalanilib dars o'tilishi, mavzuni tushuntirish barcha o'quvchilarga mavzuni tushunarli bo'lishini ta'minlamaydi. Chunki har bir o'quvchining qiziqishi, bilish darajasi, ehtiyoj va motivlari turlicha bo'ladi. Butun sinf o'quvchilariga bir xil mavzuni o'rgatish orqali o'quvchilarning qiziqishini ham oshirib bo'lmaydi. Bugungi kun o'quvchisiga uning bilish darajasi va qiziqishlarini inobatga olib, har bir o'quvchiga individual yondashuv asosida kontentni o'rgatishda samaradorlikka erishish mumkin.

Zamonaviy mакtab tizimi o'quvchilarni qiziqishi asosida o'zini o'zi o'qitishiga, bilishdan bilmaslik paradigmasiga ko'ra qiziqishlarini yo'naltirishni talab etmoqda. Zamonaviy pedagogik faoliyatga ega bo'lgan mакtab o'qituvchisi o'quvchining qiziqishlari ustida ishlashi, hamda o'quvchining qiziqishlarini rivojlantirib borishi, o'quvchilarning o'qishi, bilishi shu asosda amalga oshiriladagan harakat va harakatsizliklarini real vaziyatlar bog'lay olishi o'qituvchining kasbiy kompitentligidan dalolatdir.

Mакtab o'quvchisi dars jarayoni va darsdan tashqari vaziyatlarda o'zi o'rganatgan kontentga qiziqsa, o'qituvchi tomonidan o'quvchini qiziqtira olishga erishilishi o'quvchining o'rganish va bilishga bo'lgan motivatsiyalanishiga asos bo'ladi. Ta'lim oluvchi o'rganilayotgan kontentga qiziqsagina, u ko'proq o'rganishni xohlaydi.

O'quv jarayonida qiziqishga asoslangan darsni tashkil etilishi quyidagi afzalliklarni beradi:



- qiziqishga asoslangan ta’lim o‘quvchilarda butun umr o‘rganishga bo‘lgan ko‘nikmani shakllantiradi;
- o‘quvchilarni qiziqtirgan holda, hayotiy vaziyatlar bilan uyg’un tarzda fanni o‘rgatilishi o‘quvchilarning tabiiy ravishda fanni o‘rganishga xohishni oshiradi;
- o‘quvchilarda fanlarni o‘rganish bo‘yicha tanlash imkoniyatini berilishi o‘rganishga bo‘lgan ishtyoqni oshiradi;
- qiziqishlarini to‘g’ri yo‘naltirish asosida o‘quvchilarni o‘z qobiliyatiga munosib kasb tanlashga erishish.

O‘quvchilarni dars jarayonida qiziqishini ortishiga erishilishi ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchilar uchun “comfort learning” – qulay ta’lim olish va qulay o‘rganish imkonini beradi. Bugungi kun o‘quvchisiga qulay ta’lim olish muhitini yaratishning birinchi omili qiziqishlari asosida bilim berish bo‘lsa, ikkinchi omil sifatida o‘quvchini qiziqtira oladigan vosita, usul va resurslarni tanlanishi bilan harakterlanadi.

Zamonaviy o‘quvchi mobil telefonlar, planshet, kompyuter vositasida internet yordamida vaqtini o‘tkazmoqda. O‘quvchi o‘rganishni istagan ma’lumot haqida internet saytlari, Google, Youtube kabi platformalar hamda Facebook, Instagram, Telegram kabi ijtimoiy tarmoqlari orqali ma’lumotga ega bo‘lmoqda. Ta’lim samaradorligini ta’minlashda o‘quvchi qiziqishini inobatga olib, dars jarayonida raqamli vositalar, raqamli resurslar va vizual shakldagi kontentlardan foydalanish ijobiy samara

Ta’lim sohasi eng tez rivojlanayotgan, mamlakat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadigan, zamonaviy axborot texnologiyalari, hamda raqamli resurslarni talab qiladigan istiqbolli tarmoqlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ta’lim sohasida innovatsion texnologiyalar hamda raqamlashtirilgan resurslardan keng foydalanib kelinmoqda. Bu esa ta’lim sifatini, o‘qitish samaradorligini yanada oshirishning ustuvor yo‘nalishlaridandir. Ta’lim o‘qituvchi va o‘quvchilarining aqliy mehnati, faoliik va ijodiy fikrlashidan iborat bo‘lgan ko‘pqirrali va murakkab jarayon hisoblanadi.

Dars samaradorligini oshirish ta’lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda yo‘lga qo‘yish va yangi pedagogik texnologiyalarni amalda qo‘llash bilan uzviy bog‘liq. Ta’lim muassasalarida innovatsion faoliyatni tashkil etishdan asosiy maqsad o‘qituvchilar va ta’lim oluvchilar jamoasi hamkorligi izchilligini ta’minlash hamda uni aniq maqsadga yo‘naltirilgan holda yo‘lga qo‘yishdan iboratdir. Bu ishda ham pedagogik, ham boshqaruv masalalari hal etiladi.

O‘quvchilarda raqamli o‘rganish asososida shakllandigan raqamli savodxonlik faqat asosiy hisob-kitoblarni bajarish yoki matematik muammolarni hal qila olishdan iborat emas. U o‘quvchilarning bugungi jamiyatda rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan kengroq ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Ma’lumotlarni tushunish va talqin qilishdan tortib raqamli ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishgacha, raqamli savodxonlik turli akademik va real hayotda juda muhimdir. Borgan sari ma’lumotlarga asoslangan dunyoda raqamli ma’lumotlarni tahlil qilish, saralash, boshqarish, tushunish va sharhlash, ta’lim oluvchidan savodli bo‘lishni talab etmoqda. Statistikani tahlil qilish, bank bilan amalga oshiriladigan moliyaviy



hisobotlarni tushunish yoki ilmiy ma'lumotlarni sharhlash bo'ladimi, raqamli savodxonlik o'quvchilarining atrofdagi dunyoni tushunishlari uchun juda muhimdir. Raqamli ko'nikmalarda kuchli poydevor bo'lmasa, o'quvchilar ularga taqdim etilgan ma'lumotlarni tushunish va tanqidiy baholashda qiynalishi mumkin. Bundan tashqari, raqamli savodxonlik o'quvchilar uchun raqamli ma'lumotlarni samarali boshqarish va manipulyatsiya qilish uchun juda muhimdir. Bunga ma'lumotlar to'plamini taqqoslash, ma'lumotlarni tahlil qilish va sharhlash uchun tegishli ko'nikmalarni rivojlantirish orqali o'quvchilar raqamli ma'lumotlar bilan ishslashda ishonchli va malakali bo'lib, ularga ongli qarorlar qabul qilish va muammolarni samarali hal qilish imkonini beradi. O'qituvchilar o'quvchilarining raqamli savodxonlik ko'nikmalarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ular raqamli savodxonlikni samarali o'rgatish uchun bilim va tajribaga ega bo'lishi va o'quvchilarga muvaffaqiyatga erishish uchun zarur vositalar va strategiyalarni taqdim etishi kerak. Bunga qo'llab-quvvatlovchi va qulay o'quv muhitini yaratish, tegishli o'qitish usullari va resurslaridan foydalanish hamda o'quvchilarga o'zlarining raqamli ko'nikmalarini real hayot sharoitida amalda qo'llashlari uchun imkoniyatlar yaratish kiradi. Ta'limda raqamli savodxonlikni birinchi o'ringa qo'yish orqali biz o'quvchilarni tanqidiy fikrlaydigan, mustaqil o'r ganadigan, vaqt ni qadrlaydigan va muammolarni hal etuvchi bo'lishga imkon berishimiz mumkin. Raqamli savodxonlik nafaqat o'quvchilarni akademik muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar bilan ta'minlaydi, balki ularni kelajakdagи muvaffaqiyatlar va kundalik hayotga tayyorlaydi. Raqamli savodxonlik maktablarda hal qilinishi kerak bo'lgan pedagogik masaladir.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида юридик таълим ва фанни тубдан такомиллаштириш бўйича қўшимча чоратадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5987-сон Фармони: Тошкент ш., 2020 йил 29 апрель.

2. Ўзбекистон Республикаси Қонуни, “Таълим тўғрисида”. – Тошкент, 2020 йил 23 сентябр // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947 сон “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент, 2017 й., бсон, 70-модда.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 сентябрдаги ПФ-5538-сон “Халқ таълимини бошқариш тизимини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. – Тошкент, 06.09.2018 й., 06/18/5538/1840-сон, 13.12.2018 й., 06/18/5597/2300-сон.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги ПФ-5712-сон “Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгacha ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. – Тошкент, 29.04.2019 й.,



06/19/5712/3034-сон.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони // Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 09.10.2019 й., 06/19/5847/3887-сон; 30.04.2020 й., 06/20/5987/0521-сон.

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 14 мартағи ПҚ-2829-сон “Ўрта маҳсус, қасб-хунар таълими муассасалари фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами. - Тошкент, 2017 й., 11-сон, 156-модда.

8. William G. Huitt. „Maslow's Hierarchy of Needs“ (en). Educational Psychology Interactive (2007).

9. Рубинштейн, С. Л. Основы общей психологии – Издательство: Питер, 2002 г., 720 стр.

10. С.А.Щенников, А.Г.Теслинов, А.Г.Чернявская и др. Основы деятельности тьютора в системе дистанционного образования: специализированный учебный курс. 2-е изд., испр. - М.: Дрофа, 2006. -591с.,

11. M. Koole, M. Ally, The Framework for the Rational Analysis of Mobile Education (FRAME) Model: Revising the ABCs of Educational Practices. (ICNICONSMCL'06). DOI:10.1109/ ICNICONSMCL. 2006.103.

12. Nasirova Sh.N., Makhmudova M.A., Abdullaeva D.A. Efficiency of computer technology in teaching foreign languages ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal Impact Factor: SJIF 2020 = 7.13, p 1443-1450

13. Normurodovna, H. Z. (2024). Building Digital Literacy As An Editorial Problem. Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments, 2(4), 56-64

14. Haydarova, Z. N. (2023). MAKTAB O ‘QUVCHILARIGA RAQAMLI O ‘RGANISH KO ‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI. Academic research in educational sciences, 4(CSPU Conference 1), 1008-1013.

15. ZN Haydarova.(2024)Individual yondashuv asosida hozirgi zamon o‘quvchilarida raqamli savodxonlikni shakllantirish Mug'allim 3 (3), 199-206

16. ZN Haydarova.(2024)Ta’limda raqamli savodxonlikni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari. Raqamli transformatsiya 1 (1), 502-512

17. ZN Haydarova.(2023)Innovative Methods of Forming Students' Digital Learning Skills. International Journal on Integrated Education 6 (12), 37-42

18. ZN Haydarova.(2023)Ta’lim sohasida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish zarurati. UzMU xabarlari 1 (10), 225-227

19. A.Toshtemirov. Discovery and Interpretation of Early Medieval Murals in Central Asia. Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science. Vol.2. No 6 (2024). P. 380-385

20. A.M.Toshtemirov. ULOQ-KO’PKARI ETNOSPORT TURI SIFATIDA. Лучшие интеллектуальные исследования. Часть-6, Том-2, Октябрь-2023

21. Murotjon o‘g‘li, X. O. (2024). MADANIY ANTROPOLOGIYA VA



UNDAGI ILMIY YONDASHUVLARNING SHAKLLANISH TARIXI.  
INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY, 1(16), 53-58.

22. Murotjon, X. O. (2023). Measures to be Implemented to Preserve and Protect Architectural Monuments in the City of Bukhara. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(8), 402-406.

## ROSSIYA IMPERIYASI SIYOSATIDA GENERAL JO'RABEKNING O'RNI

**Parmonov Sharofiddin Shavkatovich**

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

E-mail: [parmonovsharofiddin96@gmail.com](mailto:parmonovsharofiddin96@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada 1840-1906 yillarda yashab o'tgan general mayor Jo'rabet Qalandar qori o'g'lining Rossiya imperiyasi siyosatida tutgan o'rni qilgan ishlari xizmat pillapoyasi haqida fikr va mulohazalar berilgan. Umuman olganda Jo'rabet Qalandar qori o'g'li Buxoro amiri amir Muzzaffarga umumiy dushmanga qarshi kurashish uchun o'rtadagi gina qudratni yig'ishtirib birlashishni taklif qiladi lekin amir bu taklifni qabul qilmay katta xatoga yo'l qo'yadi. Amirning xoinligi tufayli yengilgan Jo'rabet bilan Bobobek tog'-toshlarda uzoq muddat sarson-sargardon kezganlaridan keyin najot va boshpana so'rab Xudoyer xon huzuriga borishga majbur bo'ladilar. Xudoyerxon xiyonatkorlikka yo'l qo'yib sarkardalarni tutib fon Kaufman ixtiyoriga jo'natib yuboradi. Asir sifatida Toshkentga, general-gubernator ixtiyoriga majburan jo'natilgan Jo'rabet bilan Bobobek bu yerda ancha vaqt uy qamog'ida saqlangach, Rossiya fuqaroligini qabul qilishga va rus armiyasi xizmatiga o'tishga majbur bo'ladilar. Qo'qon xonining quyushqonga sig'maydigan ishidan dargazab bo'lgan Jo'rabet O'zgand, Xo'jand, Andijon shaharlari ustiga rus askarlari qilgan yurishlarda qatnashib, o'ziga dog tushirganini bilmay qoladi.

**Kalit so'zlar:** Markaziy Osiyo, Turkiston general-gubernatori, Peterburg, N. Ostroumov V. Bartold, Frunze, Ismoilbek G'aspirali.

**Аннотация.** В этой статье даются отзывы и размышления о роли генерал-майора Джурабека Каландара кары оглы, проживавшего в 1840-1906 годах, в политике Российской империи. В целом Джурабек Каландар предлагает Эмиру Бухары Амиру Музффару, сыну Кари, объединиться, собрав силы Джины в середине, чтобы сражаться против общего врага, но Эмир совершает большую ошибку, не принимая это предложение. Потерпев поражение из-за предательства эмира, Джурабек и бабобек вынуждены отправиться к Худоярхану за спасением и убежищем после долгих скитаний по скалам. Худояр-Хан, допустив измену, захватывает военачальников и отправляет их в распоряжение